

Botirov A.A. – TMI, dotsenti
Askarova A.A. – TMI, magistranti
Osimxonov R.O. – TMI, magistranti
Rahimov U.Z. – TMI, magistranti

KORPORATIV MOLIYANI SAMARALI TASHKIL ETISH: AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Maqolada mamlakatimizda korporativ moliyani samarali tashkil etishning amaldagi holati va uni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek korporativ moliyani samarali tashkil etish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirish masalalari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Korporativ moliya, davlat moliyasi, kichik biznes, investitsiya, korporativ boshqaruv, korxona moliyasi, pul fondlari, ustav kapital, aktiv, passiv, davlat byudjeti, iqtisod, aksiyadorlik jamiyati, aksiyadorlik kompaniyasi.

ЭФФЕКТИВНОЕ ОРГАНИЗАЦИ КОРПОРАТИВНЫХ ФИНАНСОВ: ТЕКУЩИЕ СОСТОЯНИЕ И ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

В этой статье рассматриваются вопросы повышения эффективности корпоративных финансов в текущем состоянии, особенности совершенствования корпоративных финансов, а также развитие национальной экономики посредством эффективной организации корпоративных финансов.

Ключевые слова: корпоративные финансы, государственные финансы, малый бизнес, инвестиции, корпоративное управление, предприятие финансы, денежные фонды, уставный капитал, активы, пассивы, государственный бюджет, экономика, акционерное общество, акционерные компании.

THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORPORATE FINANCE: REAL STATE AND IMPROVING IT

This article discusses issues of improving the effectiveness of corporate finance in the current state, features of improving corporate finance, as well as the development of the national economy through the effective organization of corporate finance.

Keywords. corporate finance, public finance, small business, investments, corporate governance, enterprise finance, money funds, authorized capital, assets, liabilities, public budget, economy, joint-stock company, joint-stock company.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya tizimining samaradorligi uning har bir bo'g'ini samarali ishlashi bilan bevosita bog'liq. Bunda moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan korporativ moliyada moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish nafaqat har bir korporativ tuzilmada shu bilan birga har bir mamlakatda alohida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin.

Moliya tizimining aynan shu sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga taqsimlanadigan daromadlarning asosiy qismi shakllanadi. Bunda korporativ

tuzilmalar daromadlari o'z-o'zini moliyalashtirish uchun, ishchi xodimlar va davlat oldidagi majburiyatlari hamda boshqa yo'nalishlarga taqsimlanadi. Korporativ moliya bugungi kunga kelib xalqaro moliya tizimining asosi sifatida ham xizmat qilmoqda. Aynan shunday holatda mamlakatimizda korporativ moliyani samarali tashkil etish mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish bilan birga xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonining jadallashuviga imkon beradi.

Bizga ma'lumki, 2017-yil 7-fevralda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonga imzo chekdi.[1] Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi. Avvalo, ushbu ustuvor yo'nalishlar va ulardagi amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazifalar hamda chora-tadbirlarning ijrosi bugungi kunning hayotiy va ijtimoiy zarurati ekanligini ta'kidlash lozim. "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi yo'nalishi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" masalalariga qaratilgan bo'lib bu yo'nalishning 3.4. bandida aynan iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish masalalari yuzasidan oldimizga qo'yilgan vazifalar belgilab qo'yilgan. Jumladan;

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'rixorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish. Shuningdek ushbu yo'nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy

korxonalarning aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

2017-2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshishi mazkur "Harakatlar strategiyasi"ga berilgan sharhda ta'kidlangan.[2] Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlardan ham ko'rinib turibdiki korporativ moliyani samarali tashkil etish mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini oshishiga va jahon hamjamiyatida o'z o'rnimizni mustahkamlab olishimizga zamin yaratadi. Yo'qorida ta'kidlangan jihatlar ushbu mavzuni dolzarbligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Korporativ moliyani mamlakat moliya tizimidagi o'rni va ahamiyatini bir qator xorijiy olimlar va mahalliy olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida, darsliklarida va o'quv adabiyotlarida atroflicha o'rganishgan.

Ingliz iqtisodchi olimlaridan Richard A.Brealey, Stewart C.Myers, Franklin Allenlar "Korporativ moliya bu barchasi bozor qiymatini maksimallashtirish haqidadir"[3], deb ta'kidlashsa, fransuz iqtisodchi olimlaridan Pierre Vernimmen, Pascal Quiry, Maurizio Dallochio, Yann Le Fur, Antonio Salvilar "Korporativ moliya nafaqat nazariy darslik, balki amaliy qo'llanma hamdir"[4], deya fikr bildirishadi. Shuningdek, Stephen A.Ross, Randolph W.Westerfield, Bradford D.Jordanlar korporativ moliyaga quyidagicha yondashdilar: "Korporativ moliya umumiy holda "Uzoq muddatli investitsiyalarni qanday jalb qilish kerak?", "Uzoq muddatli moliyalashtirishni qayerdan olmoqchisiz: qo'shimcha ta'sischi jalb qilasizmi yoki qarz olasizmi?", "Kundalik moliyaviy faoliyat bo'yicha xaridorlardan tushumlar va mol yetkazib beruvchilarga xarajatlarni qanday tartibda boshqarasiz?" kabi uchta savolga javob topish yo'llarini o'rganishdir"[5].


Mahalliy olimlarimizdan iqtisod fanlari doktori S.E.Elmirzayev o'zining "Korporativ moliya" o'quv qo'llanmasida korporativ moliyaga quyidagicha ta'rif bergan. Korporativ moliya – yuridik va jismoniy shaxslarning o'z mulklarini ixtiyoriy ravishda birlashtirish orqali tijorat tashkilotini tashkil etish va tashkil etilgan tijorat tashkilotining faoliyati bilan bog'liq pulli munosabatlarni anglatadi va moliya tizimining mustaqil sohasi hisoblanadi[6].

Tahlil va natijalar

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, korporativ tuzilma bu tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxsdir. Yuridik shaxs tushunchasi esa o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotni anglatadi.

Korporativ tuzilmalarda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlash mumkin:

- ta'sischi o'rtasida;
- alohida korxonalar o'rtasida;
- korxonalar va ularning bo'linmalari o'rtasida;
- korxonalar va ularning ishchi-xodimlari o'rtasida;
- korxonalar va yuqori turuvchi tashkilotlar o'rtasida, moliya-sanoat guruhlarida tarkibidagi biznes subyektlari o'rtasida, xolding tarkibidagi biznes subyektlari o'rtasida;
- korxonalar va davlat moliya tizimi o'rtasida;
- korxonalar va bank tizimi o'rtasida;
- korxonalar va sug'urta kompaniyalari o'rtasida;
- korxonalar va fond birjalari o'rtasida;
- korxonalar va investitsiya institutlari o'rtasida.




1-rasm. Korxona moliyasida moliyaviy munosabatlar va pul fondlarining tutgan o'rni[7]

Korxona moliyasi - korxona xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Korxona moliyasi korxona faoliyatining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Korxona moliyasi moliyaviy resurslar manbalari, yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish doirasida bevosita qatnashadi.

Korxona quyidagilar bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarga kirishishi pul fondlarining shakllanishi orqali amalga oshiriladi: Mol yetkazib beruvchilar – uning faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy qiymatliklar, xizmatlar sotib olinishida; pudratchilar – qurilish mantaj, remont va boshqa ishlarga to'lov; xaridorlar – tovar realizatsiyasida va xizmat ko'rsatishda; byudjet bilan – soliqlar, ajratmalar va boshqa to'lovlar bo'yicha; banklar – kreditlar, pul mablag'larining saqlanishi, hisob operatsiyalariga to'lovlar; ishchi va xizmatchilar – ish haqi va boshqa hisoblar bo'yicha.

Korxonalarda pul fondlari korxona moliyasini tashkil etish asosini tashkil etadi. Chunki pul mablag'lari bo'lgandagina korxona moliyasiga ehtiyoj yuzaga keladi. Korxona moliyasi belgilangan maqsadiga erishish uchun pul fondlarini shakllantiradi, ularni taqsimlaydi va foydalanadi.



2-rasm. Korxonalarda shakllanadigan pul fondlarining holati[8]

Korxona pul mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida turli maqsadli fondlarni shakllantiradi. Har bir pul fondning o'z maqsad va vazifalari belgilanadi.

Korxonalar pul fondlarini shakllantirish orqali xo‘jalik faoliyatini kerakli mablag‘lar bilan ta‘minlashni amalga oshiradi, hamda takror ishlab chiqarishni kengaytiradi; pul oqimlari harakatini ishlab chiqarish uzluksizligiga qaratadi; ilmiy texnika jarayonini moliyalashtiradi; yangi texnikani o‘zlashtiradi va joriy etadi; subyektlarni iqtisodiy rag‘batlantiradi; byudjet, bank va hokazolar bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Bizga ma‘lumki korxona faoliyati boshlashi bilan dastlab ustav fondi shakllantiriladi. Ustav fondi mablag‘lari korxona faoliyatini ta‘minlaydi. Shundan kelib chiqqan holda quyida “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining 2017-yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya balansi holatini tahlil qilib, bunda ustav fondi, rezerv fondi, qo‘shilgan kapital va taqsimlanmagan foydaning aktivlarni shakllantirishdagi ahamiyatini o‘rganib chiqamiz.

1-jadval

“O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining 2017-yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya balansi holati tahlili[9]

№	AKTIVLAR	ming. soʻm	% da	№	PASSIVLAR	ming. soʻm	% da
1	Asosiy vositalar	5461246	0.16	1	Ustav kapitali	637011147	18.8
2	Nomoddiy aktivlar	681791	0.02				
3	Uzoq muddatli investitsiyalar	657098435	19.38	2	Rezerv kapitali	1505297	0.04
				3	Taqsimlanmagan foyda	9090759	0.2
				4	Maqsadli tushumlar	1263873	0.4
Uzoq muddatli aktivlar jami		659655128	19.5	Oʻz mablagʻlari jami		648871076	19.1
7	Tovar moddiy zaxiralar	14507	0.0004	5	Uzoq muddatli majburiyatlar	35035687	1.03
8	Kelgusi davrlar xarajatlari	5781	0.0001				
9	Debitorlik qarzlari	867604	0.02	6	Joriy majburiyatlar	2705799458	79.82
10	Pul mablagʻlari	463684	0.01				
11	Qisqa muddatli investitsiyalar	2728699517	80.4				
Joriy aktivlar jami		2730051093	80.5	Majburiyatlar jami		2740835145	80.1
JAMI AKTIVLAR		3389706221	100	JAMI PASSIVLAR		3389706221	100

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlarida “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining 2017-yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya balansi holati ko‘rsatilgan. Ushbu ma‘lumotlarga ko‘ra korxonaning 2017-yilda aktivlari 3 trillion 389 milliard 706 million 221 ming so‘mni tashkil etgan. Kompaniyaning uzoq muddatli aktivlari 659 milliard 655 million 128 ming so‘mni, yoki jami aktivning 19,5 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga kompaniyaning joriy aktivlari 2730051093 2 trillion 730 milliard 51 million 93 ming so‘mni, yoki jami aktivning 80,5 foizini tashkil qilgan. “O‘zdonmahsulot” AKning uzoq muddatli investitsiyalari 657098435 657 milliard 98 million 435 ming so‘mni, yoki jami aktivlarni 19,38 foizini tashkil etgan. Shuningdek

qisqa muddatli investitsiyalar 2728699517 2 trillion 728 milliard 699 million 517 ming soʻmni, yoki kompaniyaning jami aktivini 80,4 foizini tashkil qilgan. Kompaniyaning passivlari ham 3 trillion 389 milliard 706 million 221 ming soʻmni tashkil etgan. Kompaniyaning uzoq muddatli majburiyatlari 35035687 35 milliard 35 million 687 ming soʻmni, yoki kompaniyaning jami passivlarini 1,03 foizini tashkil etgan. Shuningdek, kompaniyaning joriy majburiyatlari 2705799458 2 trilloin 705 milliard 799 million 458 ming soʻmni, yoki kompaniyaning jami majburiyatlarini 79,82 foizini tashkil etgan. Bundan koʻrinib turibdiki kompaniyaning uzoq muddatli majburiyatlariga qaraganda joriy majburiyatlari bir muncha koʻp.

Quyida korxonalarda asosiy pul mablagʻlari yaʼni xususiy kapitaldan shakllanadigan pul mablagʻlarni tahlil qilib chiqdik. Ammo takror ishlab chiqarish sharoitida korxonalarining faoliyatini moliyalashtiradigan asosiy pul mablagʻi – mahsulot sotishdan sof tushum hisobiga shakllanadigan pul mablagʻi hisoblanadi. Mahsulot sotishdan sof tushum korxonaning deyarli barcha faoliyatini moliyalashtiradi. Yaʼni kelgusidagi ishlab chiqarish, ishchi va xodimlarga mehnat haqi toʻlovlari, amortizatsiya fondini shakllantirish, ijtimoiy sugʻurta fondiga ajratmalar, soliqlar, davr xarajatlari va boshqa xarajatlar aynan mahsulot sotishdan kelgan daromadlar hisobiga moliyalashtiriladi. Shundan kelib chiqqan holda quyida “Oʻzdonmahsulot” AK ning sotishdan sof tushumi va undan yoʻnaltirilgan mablagʻlar holatini oxirgi yillar misolida quyida koʻrib chiqamiz.

2-jadval

“Oʻzdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining 2016-2017 yil yakunlari boʻyicha moliyaviy natijasi holati tahlili[10]

№	Koʻrsatkichlar	2016 yil	2017 yil	Farqi (+, -)
1	Mahsulot sotishdan sof tushum	-	-	
2	Davr xarajatlar	7708713	6712460	-996253
3	Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	236092	902797	+666705
4	Moliyaviy faoliyatdan daromadlar	7877856	8419260	+541404
5	Moliyaviy faoliyatdan xarajatlari	-	-	-
6	Umumxoʻjalik faoliyatining foydasi	405235	2609597	+2204362
7	Soliq toʻlangunga qadar moliyaviy natija	405235	2609597	+2204362
	Sof foyda	405235	2609597	+2204362

Yuqoridagi 2-jadvalda “Oʻzdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining 2016-2017 yil yakunlari boʻyicha moliyaviy natijasi holati tahlili keltirilgan. Ushbu jadval maʼlumotlariga koʻra “Oʻzdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining davr xarajatlari 2017-yilda 6 milliard 712 million 460 ming soʻmni tashkil atgan boʻlib, 2016-yilga qaraganda 996 million 253 ming soʻmga kamaygan.

Kompaniyaning daromadlari 2016-yilga qaraganda 2017-yilda ancha oshgan. Jumladan: Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar 666 million 705 ming soʻmga, moliyaviy faoliyatdan daromadlar 541 million 404 ming soʻmga, umuxoʻjalik faoliyatining foydasi 2 milliard 204 million 362 ming soʻmga oshganini koʻrishimiz mumkin.

Korxonalar moliyasini samarali boshqarishning yana bir asosiy eʼtiborli jihati shundaki, korxonalarda ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish xarajatlarini optimallashtirish boʻlib hisoblanadi. Korxonalarda xarajatlarini optimallashtirish ularning iqtisodiy barqarorligini taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Bunday tadbirlarni amalga oshirishda korxonalarda xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xarajatlarni minimallashtirish strategiyasini qo'llaganda korxonalar mahsulot narxini kamaytirish evaziga ushbu turdagi mahsulot bozorining katta ulushini egallashi mumkin. Ushbu strategiyani amalga oshiruvchi firma yaxshi tashkil qilingan ishlab chiqarish tizimiga, yaxshi ta'minot tizimiga, zamonaviy texnologiyaga va muhandislik-konstruktorlik bazasiga hamda mahsulot taqsimlashning yaxshi tizimiga ega bo'lishi kerak. Qo'shimcha qilib aytish mumkinki, minimal xarajatlarga erishish uchun mahsulot tannarxi bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar chuqur tahlil qilinishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ma'muriy va sotish xarajatlarini ham o'rganib chiqishi va ularni kamaytirish yo'llarini qidirishi muhimdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etish bizning korxonalarimiz uchun yangi jabha bo'lib hisoblanadi shuning uchun moliyaviy menejmentni tashkil etishning jahon amaliyotini tahlil etish hamda ularni O'zbekiston korxonalarida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida korporativ moliyani samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunga kelib rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati ularda faoliyat ko'rsatayotgan va dunyoga mashhur bo'lib ulgurgan kompaniyalar bilan o'zaro bog'liqligini alohida ta'kidlashimiz mumkin. Ya'ni davlat moliyaviy salohiyati shu mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy salohiyati bilan bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda korxonalarda pul fondlarini shakllantirishdan maqsad, korxonalarda pul mablag'larini bir joyga yig'ib qo'yish va pul fondlari sonini bittaga oshirish emas, balki korxona pul mablag'laridan aniq maqsadlarda va aniq vaqtlarda samarali foydalanish natijasida o'z daromadlarini va davlat byudjeti daromadlarini oshirish hisoblanadi.

Korporativ moliyada pul mablag'larining miqdori qancha bo'lishi, yoki debitorlik qarzlari miqdori qancha miqdorga oshib ketishi emas balki, pul mablag'lari va debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi qancha katta bo'lishi muhimroqdir. Buni biz "O'zdonmahsulot" AK misolida ko'rib chiqdik. Pul mablag'lari qancha tez aylansa, oz mablag'lar bilan ham ma'lum bir davrda katta ishlab chiqarishni amalga oshirish va barcha xarajatlarni qoplash mumkin. Pul mablag'lari juda sekin aylansa ko'p pul mablag'lari bilan ham bir ishlab chiqarishni moliyalashtirish mushkul bo'lib, hattoki ishlab chiqarish ma'lum bir muddatga to'xtab qolishi ham mumkin. Bundan tashqari debitorlik qarzlari oshib ketib, soliqlarni ham o'z vaqtida to'lolmaganlik uchun yana turli penya va jarimalar kelib chiqadi. Bu esa korxona moliyaviy holatiga shuningdek davlatimiz byudjetiga ham juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda korporativ moliyani samarali tashkil etishni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik.

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yaxshilash uchun korporativ tuzilmalarda aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul fondlaridan samarali foydalanish lozim, pul fondlari korporativ tuzilmalarda pul mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini va uning uzluksizligini ta'minlab beradi.

2. Korporativ moliyani samarali tashkil etishda korxonalarda samarali soliqlarni rejalashtirishga e'tibor qaratish lozim, bu o'z navbatida korxonalarga korxonalar moliyaviy holati yaxshilanishiga va keying yillarda esa korxonalarda soliq bazasi kengayishi hisobiga davlat byudjetiga soliq tushumlari oshishiga olib keladi.

3. Korxonalarda imkon qadar pul mablag'lari oqimini soliq to'lovlari muddatiga to'g'rilash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni bu degani soliq to'lovi muddati kelishi bilan korxona mahsulotlari realizatsiyasidan pul kelib tushib, soliq to'lashga tayyor bo'lib turadi. Bu holat soliq to'lash muddatidan ancha oldin ham ancha keyin ham bo'lmay sodir bo'lishi lozim. Shundagina korxona soliqlar bo'yicha hech qanday qiyinchiliklarga uchramaydi.

4. Korporativ moliyaning amal qilish mexanizmini samarali tashkil etish maqsadida real sektor va moliyaviy sektor o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish lozim. Bunda moliya bozorining rivojlantirish ustuvor darajada ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y.

2. Gerard Hoberg Gordon M. Phillips. "Product market synergies and competition in mergers and acquisitions: a text-based analysis", 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138, Avgust 2008, - P. 2-3.

3. Eugene F. Brigham, Michael C. Ehrhardt. Financial Management: Theory And Practice. – 15th edition. USA: EpicStockMedia/Shutterstock.com, printed in Canada, 2015. – P. 874.

4. Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, Franklin Allen. Fundamentals of Corporate Finance. Seventh Global Edition.– McGraw-Hill Education, 2014. – p.51. (1341 p.)

5. Pierre Vernimmen, Pascal Quiry, Maurizio Dallocchio, Yann Le Fur, Antonio Salvi. Corporate finance: theory and practice. Fourth edition. – Wiley, 2014. – p.10. (997 p)

6. Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfi eld, Bradford D. Jordan. Fundamentals of Corporate Finance. – McGraw-Hill/Irwin, 2013. – p. 49 (824 p.)

7. Elmirzayev S. Korporativ moliya. O'quv qo'llanma / O'zRO va O'MTV TMI. –T: "Iqtisod-moliya", 2015. 272 bet.

8. И.М.Карасева, М.А.Ревякина «Финансовый менеджмент», ОМЕГА-Л-Москва-2008, 21-стр.

9. Samuel Stebbens. "Biggest mergers of the year"/2018/ <https://247wallst.com/special-report/2018/12/03/biggest-mergers-of-the-year-3/>.

10. www.uzdon.uz (O'zdonmahsulot aksiyadorlik kompaniyasining rasmiy web sayti).